

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.12/30.12. 2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

ZUPAROVA DILNOZA DADAXONOVNA

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR LOYIHALASH
KOMPETENSIYASINI DIZAYN ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Zuparova Dilnoza Dadaxonovna

Mahtabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn
asosida rivojlantirish. 3

Зупарова Дилноза Дадахоновна

Развитие проектной компетенции детей старшего дошкольного возраста
на основе дизайна 27

Zuparova Dilnoza Dadaxonovna

Development of project competence of children of senior preschool age based
on design..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 55

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.12/30.12. 2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

ZUPAROVA DILNOZA DADAXONOVNA

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR LOYIHALASH
KOMPETENSIYASINI DIZAYN ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2022.3.PhD/Ped1718 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mdomoi.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashurova Sanobar Yuldashevna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rejаметova Nilufar Ilxamovna
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” ___ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 64-uy. Tel.: (+99871)150-01-27; faks: (+99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 64-uy. Tel.: (+99871)150-01-27; faks:(+99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.X. Raxmankulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

Sh.E. Ne’matov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi p.f.n.

F.R. Qodirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim sohasida yosh avlodlarning loyihalash kompetensiyalarini kengaytirish, ularni kelajakda o'z dunyoqarashi va tanqidiy fikrlashini shakllantirib borish masalasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti garovidir. Loyihaviy-ijodiy fikrlashga bolalarni ilk yoshlaridan boshlab o'rgatib borish tendensiyasi bir qator rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilib, yuqori samaraga erishilgan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda dizayn, dizayn ta'limiga maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonidan boshlab e'tibor qaratilmoqda. PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlar ta'lim sifatini kreativlik, tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi namunaviy materiallar bilan boyitilgan.

Dunyo bo'ylab taraqqiy etayotgan mamlakatlar tarixiy tajribasiga nazar solsak, aksariyat hollarda farzandlarining ilk bolalik davridanoq dizayn va loyihalash kompetensiyasiga o'rgatib tayyorlab borish amaliyoti keng qo'llanilishining guvohi bo'lamiz. Bugungi kunda ilg'or, innovator shaxslarning yetishib chiqishi o'z mamlakatining iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta'minlamoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, texnologiya va innovatsion g'oyalarni har tomonlama tushunish va yangiliklar yaratish, globallashuv davrining asosiy xususiyatlaridan sanaladi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda zamonga mos shart-sharoitlar yuzaga chiqayotgan hozirgi davr turli daraja va soha mutaxassislari kompetensiyasiga yuqori talablar qo'ymoqda. Xalqimizning eng aziz qadriyatlaridan biri – bola tarbiyasi, uning bilim olishi va biron-bir hunarning egasi bo'lishi uchun kattalar tomonidan g'amxo'rlik qilinishi an'anasi sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligini va mahoratini oshirib borishning takomillatirilgan tizimini tatbiq qilish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish belgilab qo'yilgan". Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish haqida alohida to'xtalib o'tdi. Davlat rahbari 2023 yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb e'lon qildi. Prezident tomonidan bildirilgan fikrlarda "farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozimligi e'tirof etildi. Shuningdek, o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur ekanligiga" alohida urg'u berildi. Respublikamizda bugungi kunda samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil etishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Hukumat hujjatlarida belgilangan masalalarni hal etishning innovatsion yo'nalishlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"¹ to'g'risidagi PQ-4312-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.

vazirligining 2018 yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida” gi 3032-sonli buyrugi, Maktabgacha ta‘lim tashkilotining “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy-estetik sifatlarni shakllantirish yo‘nalishlarida F.Qodirova², M.Abdullayeva, Z.Azizova, G.Berdaliyeva, D.Babayeva, T. Hurvaliyeva, tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

MDH maktabgacha ta‘lim tarbiyalanuvchilarining loyihalash kompetensiyasi va dizayn muammolari bo‘yicha G.Panteleyev³, Ye. Tkachenko, S.Kojuxovskaya, N.Konisheva, I.Likova, A.Ribakova, V.Shteynberg, S.Shuxardina ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Maktabgacha pedagogikada dizayn xususiyatlari xorij olimlari R.Larimore V Akerson, Ero-Tolliver, S.Y.Hong, va boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan.

Pedagogikada, professional ta‘limida dizayn ta‘limi, kasbga yo‘llash, loyihalash kompetensiyasiga oid tadqiqotlar N.Muslimov, Sh.Sharipov, N.Karimova tomonidan tadqiq etilgan. Dizayn nazariyasi va tarixi bo‘yicha xorij olimlari

² Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A‘zamova N. Maktabgacha pedagogika. // Darslik. – T.:Tafakkur, 2019. 688 b.; Abdullayeva M.A. Oilada maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish. // Diss..ped.fan.nom. – T., 2009. 160 b.; Azizova Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. // Avtoref. ped.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD). – T., 2019. 26 b. Berdaliyeva G.A.Maktabgacha ta‘lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish. //Avtoref. ped.fan.nom. – T., 2019. 26 b.; Babayeva D.R. Tevarak atrofini o‘rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish. // Diss.ped.fan.nom. – T., 2001. 156 b.; Hurvaliyeva T.L.. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. 59 b.

³ Пантелеев Г.Н. Детский дизайн: Художественное творчество в детском саду, начальной школе и семье. – М.: Карапуз-Дидактика, 2006.; Ткаченко Е.В., Кожуховская С.М. Концепция непрерывного дизайн-образования. – М.: Изд. центр НОУ «ИСОМ», 2006. Кожуховская С.М. Дизайн-образование: структура, содержание и методы реализации. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2011.; Коньшева Н.М. Теоретические основы дидактической системы дизайнерского образования младших школьников. // Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – М., 2000. Лыкова И.А. Стратегия формирования эстетического отношения к миру в изобразительной деятельности дошкольников. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2009. 54 с.; Рыбакова Е.А. Педагогическое сопровождение детей дошкольного возраста в творческой деятельности. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Челябинск, 2015.26 с.; Штейнберг В.Э. Теория и практика дидактической многомерной технологии. – Москва: Народное образование, 2015. 354 с.

Г.П. Калинина, С.Б. Шухардина. Методика формирования технологических умений у старших дошкольников / Екатеринбург, 2012.54б.; Rachel A. Larimore Preschool Science Education: A Vision for the Future Published online: 10 February 2020 © Springer Nature B.V. 2020. Akerson, V. L., Weiland, I., & Fouad, K. E. (2015). Children’s ideas about life science concepts. Research in Early Childhood Science Education. <https://doi.org/10.1007/978-94-017-9505-0>. Ero-Tolliver, I., Lucas, D., & Schauble, L. (2013). Young children’s thinking about decomposition: Early modeling entrees to complex ideas in science. Research in Science Education, 43(5), 2137–2152. <https://doi.org/10.1007/s11165-012-9348-4> S. Y.Hong, & Diamond, K. E. (2012). Two approaches to teaching young children science concepts, vocabulary, and scientific problem-solving skills. Early Childhood Research Quarterly, 27(2), 295–305. <https://doi.org/10.1016/j.ecresq.2011.09.006>. Muslimov N.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik Asoslari. Ped.fan.dok....diss. -t.: 2007. -315 b.; Sharipov Sh.S.. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti. // Ped.fan.dok. ...diss.avtoref. – T., 2012. 46 b.; Karimova N.N. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.; Земпер Г. Практическая эстетика. – М.: Искусство, 1970.; Рело Ф. Техника и ее связь с задачей культуры. – СПб., 1885.; Нельсон Д. Проблемы дизайна. – М.: Искусство, 1971.; Глазычев В. О дизайне. Очерки по теории и практике дизайна на Западе. – М.:Искусство, 1970; Розенсон И.А. Основы теории дизайна. М,2007 Лаврентьев А.Н. История дизайна. // Учебное пособие. – Москва: Гардарики, 2007. 306 с.; Арватов Б. Искусство и классы. М.: Госиздат, 1923; Моран Анри де. История декоративно-прикладного искусства от древнейших времен до наших дней с приложением статьи Жеральда Гассио-Талабо о дизайне / Пер. с фр. Н.И. Столяровой и Л.Д. Липман. – М.: Искусство, 1982; Précisions sur un état présent de l’architecture et de l’urbanisme”, Le Corbusier. 1930.

G.Zemper, F.Ryolo, D.Nelson ilmiy izlanishlar olib borishgan. Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari V.Glazichev, I.Rozenson, A.Lavrentyev ishlarida tadqiq etilgan. Jahon olimlari va tadqiqotchilari tomonidan Dizayn va dizayn ta'limi nazariyasi, dizayn turlari, didaktik dizayn kabi yo'nalishlarda qator tadqiqotlar olib borilgan. Dizayn-ta'limga turli mamlakatlar olimlari katta e'tibor karatganlar. San'at, fan va amaliyotning o'zaro uyg'unligi masalasi B.Arvatov, Anri de Moran, Le Korbyuzye, kabi olim va ijodkorlarning diqqat markazida bo'lgan. Ular badiiy va ilmiy bilimlarning bir birini to'ldirishiga umumnazariy masala sifatida qaraganlar.

Pedagogik nazariya va amaliyotda loyihalash bilan dizayn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalariga maxsus e'tibor berilmagan. Loyihalash masalasi kompetensiyali yondashuv nuqtai nazaridan mental darajada maxsus tadqiq etilmagan. Loyihalash kompetensiyasining tuzilmasi, uning maktabgacha katta yoshdagi bolalar rivojlanish sohasiga ta'siri maxsus darajada o'rganilmagan.

Qator olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shaxsni shakllantirish muammolari yechimiga qaratilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida loyihalash kompetensiyasiga ega pedagog va tarbiyalanuvchilar shaxsini tarbiyalash va ularning tanqidiy fikrlash madaniyatini dizayn asosida rivojlantirish va takomillashtirish masalalari maxsus o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124-raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2023).

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning metodik tizimini dizayn asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

loyihalash kompetensiyasi, dizayn va dizayn ta'limi, pedagogik dizayn asoslarini aniqlash, dizayn ta'limi bo'yicha xorij tajribasini tahlil etish, dizayn vositalarini maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, psixologik, axloqiy va tarbiyaviy jihatlarini asoslash.

katta maktabgacha yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik tuzilmasini taklif etish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida loyihalash kompetensiyasining pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, uning maqsad vazifalarini belgilab olish, rivojlantirishga qaratilgan dizayn ta'limi metodlari, shakl va vositalarini tahlil qilish hamda tajribalarda sinab ko'rish samaradorligini aniqlash orqali loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'lim-tarbiya pedagoglari va katta maktabgacha yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish, ularning o'zaro va rivojlanish sohasi bilan o'zaro bog'liqligini tadqiq etish.

Tadqiqot obekti maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarida loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish pedagogik jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent shahri, Namangan

va Sirdaryo. viloyatlaridagi jami 9 ta tajriba maydonchasi pedagog va tarbiyalanuvchi respondentlari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-manbalarni tahlil etish, retrospektiv va qiyosiy tahlil, Davlat talablari, o'quv-meyoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni tanqidiy va qiyosiy o'rganish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba-sinovda kuzatuv, modellashtirish anketa so'rovnomasi, suhbat, noverbal test, ilmiy farazni matematik modellashtirish, ekstrapolyatsiya, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash, korrelyatsion, regression analiz, klaster analiz, taqqoslash, eng kichik kvadratlar statistik metodi, farqlar ichidagi farqlar metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha pedagogikaga dizaynni ekstrapolyatsiya qilish va maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyati, iqtidori va qiziqishlarini o'rganish asosida "bolalar uchun dizayn" hamda "bola dizayni" tamoyillarini mujassamlashtiruvchi maktabgacha dizayn ta'limining tashkiliy-pedagogik tuzilmasi loyihalangan;

loyihalash kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi maxsus-ochiq predmet-makonli dizayn ta'lim-tarbiya muhiti, shart-sharoitlari mind map, dizayn (loyiha) va muammoli vaziyatlar, tahliliy fikrlash, estetik did, loyihaviy ijodiy tasavvurni kengaytirish hamda milliy dizayn elementlariga hurmat, xalq amaliy bezak san'ati namunalari bilan tanishtirishga qaratilgan mashg'ulot ishlanmalaridan tashkil topgan metodik tizimdan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

dizaynda mentallik, insonparvarlik, yuksak axloq, jamoaviylik, individuallilik, tanqidiy fikrlash, kollaboratsiya, kreativ rivojlantirish, jamoaviylik va faol muloqot prinsiplari asosida loyihalash kompetensiyasiga ega maktabgacha katta yoshdagi bola shaxsini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon modeli takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda loyihalash kompetensiyasi va rivojlanish sohalari kompetensiyalari ko'rsatkichlari dinamikasi ijodiy va kreativ topshiriqlar ko'rinishidagi diagnostik vositalarini ishlab chiqish va tatbiq etish natijalari, shuningdek, taklif etilgan metodikalar samaradorligi Stata ekonometrik paketi asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Dizayn nazariyasi maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoniga retrospektiv tahlil asosida ekstrapolyatsiya qilingan;

MTT katta yoshdagi bolalarda dizaynga asoslanib loyihalash kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi maxsus-ochiq predmet-makonli dizayn ta'lim-tarbiya muhiti shart-sharoitlari taklif etilgan;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik modeli va metodik tizimi asoslangan;

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda loyihalash kompetensiyasi va rivojlanish sohalari kompetensiyasini diagnostika qilish metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi loyihalash kompetensiyasi va dizayn ta'limiga nisbatan turlicha metodologik yondashuvlarning qo'llanganligi, natijalarni tahlil qilishga zamonaviy paradigmalar nuqtai nazaridan yondashilgani; tajriba-sinov respondentlari tanlanmasining reprezentativligi; tadqiqotning aniqlovchi va nazariy-eksperimental bosqichidagi ilmiy farazlarning statistik jihatdan tasdiqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan maktabgacha ta'limda dizaynning tashkiliy-metodik tuzilmasi, loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning metodik tizimi, loyihalash kompetensiyasiga ega maktabgacha katta yoshdagi bola shaxsini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon modeli, o'quv qo'llanma, monografiya, yaratilgan elektron ta'lim resurslari, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan "Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari" malaka oshirish kurslarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkiloti katta yoshdagi bolalarida loyihalash kompetensiyasini shakllantirish jarayonida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlashda, maktabgacha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari, variativ dasturlar, ishlab chiqishda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'quv mashg'ulotlari noan'anaviy usulda tashkil etishda, maktabgacha ta'lim pedagoglarining loyiha faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanish uchun ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy-metodologik va amaliy takliflar asosida:

maktabgacha ta'limga dizaynni ekstrapolyatsiya qilish va maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyati, iqtidorini va qiziqishlarini o'rganish asosida "bolalar uchun dizayn" tamoyillarini mujassamlashtiruvchi maktabgacha dizayn ta'limining tashkiliy-pedagogik tuzilmasini loyihalashga oid tavsiyalar "Dizayn tarixi" nomidagi o'quv qo'llanma, "Dizayn tarixi" nomli elektron qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2014 yil 23 apreldagi 355-007- raqamli guvohnomasi). Mazkur o'quv qo'llanma va elektron ta'lim resurslari maktabgacha ta'lim pedagoglarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish orqali maktabgacha dizayn ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

loyihalash kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi maxsus-ochiq predmet-makonli dizayn ta'lim-tarbiya muhiti, shart-sharoitlari mind map, dizayn (loyiha) va muammoli vaziyatlar, tahliliy fikrlash, estetik did, loyihaviy

ijodiy tasavvurni kengaytirish hamda milliy dizayn elementlariga hurmat, xalq amaliy bezak san'ati namunalari bilan tanishtirishga qaratilgan mashg'ulot ishlanmalari asosida "Ijodkor bolajon" uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan (Maktabgacha ta'lim vazirligining 2022 yil 29 dekabrda 03-03/2-3304-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv-uslubiy ta'minot vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy yaratuvchanlik, loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda loyihalash kompetensiyasi va rivojlanish sohalari kompetensiyalari ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlashga yo'naltirilgan ijodiy va kreativ topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish asosida "Badiiy-ijodiy faoliyat", "Birgalikda yasaymiz" didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan (Maktabgacha ta'lim vazirligining 2022 yil 29 dekabrda 03-03/2-3304-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur didaktik ta'minot vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda loyihalash kompetensiyasi va rivojlanish sohalari kompetensiyasi darajasini aniqlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, 3 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta mualliflik, 1 ta dasturiy vosita guvohnomasi olingan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 122 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn vositasida rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Loyihalash kompetensiyasi, dizayn va dizayn ta'limi tushunchalari mazmun-mohiyati ahamiyati aniqlangan. Maktabgacha pedagogikada dizaynning tashkiliy-pedagogik tuzilmasi ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida dizayn ta'limini qo'llashning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida dizayn faoliyatini tashkil etishning psixologik, tarbiyaviy va axloqiy jihatlari mental yondashuv nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Innovatsion taraqqiyotga erishish uchun bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri – insonlarda innovatsion loyihaviy faoliyatga tayyorgarlik malakalarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat. Bu esa ta'lim tizimi oldiga maktabgacha ta'limdan boshlaboq analitik va tahliliy fikrlovchi, innovatsiyalarga intiluvchi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasiga ega, kelajakda raqobatbardosh muhitda ishlay oladigan, kreativ, omilkor avlodni tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Bu, albatta, loyihalash kompetensiyasining innovatsion mazmun-mohiyatida namoyon bo'ladi. XX asr ilmiy-texnologik rivojlanish pallasiga faol kirib borar ekan, dizayn deb e'tirof etiluvchi insonni o'rab turgan sun'iy muhitni ongli tarzda shakllantirish va tushunishga yo'nalgan va loyiha faoliyati bilan uyg'un bo'lgan loyihalash madaniyatini yuzaga keltirdi. U o'zida hayotiy qadriyatlar, muhit yoki madaniyat shakllari, loyihalash madaniyatining u bilan bir butunlikni tashkil etuvchi boshqa sohalar, hayot tarzi va unga hamohang ijtimoiy madaniyat, vizual madaniyatni mujassam etdi. Inson hayotining asosiy qismi me'moriy muhit qurshovida, sun'iy tarzda yaratilgan narsalar olami muhitida o'tadi. Dizayn loyihalash faoliyati sifatida ijtimoiy va madaniy sohalarning barcha jabhalarini zabt etmoqda. Dizayn bolalarning estetik dunyoqarashini, badiiy idrokini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, mustaqil ijod qilish istagini oshiradi, ijodiy vazifalarni mustaqil hal qilishga, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Dizayn tajribasini qo'llash, atrofdagi dunyoni bezash, bolalarda keng ko'lamli tasavvurni, majoziy fikrlashni, estetik didni rivojlantiradi. Dizayn faoliyati orqali bolalar o'zlarini o'rab turgan muhit, MTT va oiladagi predmetlar olamining badiiyligi, funkcionalligini tushunishni o'rganadilar.

Loyihalash (lat. projectus – oldinga tashlangan) – amalga oshirish natijasida yangi mahsulot namunasi va uni olish usul, metod va texnologik ketma-ketligi yaratiladigan intellektual harakatlar majmui. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bolalarni loyiha faoliyati orqali tahliliy fikrlashga o'rgatib borish ularning kelajakda barkamol inson bo'lib shakllanishi uchun sharoit yaratishdir.

Bolalar hamjamiyatining loyihalash madaniyati – insonlar hamjamiyatining o'zaro va dunyo bilan aks ta'sirining turli xil usublari yordamida shakllangan va shakllanib kelayotgan, insonning yaratuvchilik qobiliyatiga yo'naltirilgan jarayon.

Loyihalash kompetensiyasi shaxsning loyihalash faoliyatini bajarishga tayyorgarligini ijtimoiy ahamiyati, muvaffaqiyatli natijasi va shu natija uchun mas'uliyatni ta'minlovchi, bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini amalda qo'llash layoqatidir.

Bizning ta'birimizcha, bu materiallar va axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari bilan qiziqadigan, texnologik sohadagi insoniyat erishgan yutuqlarni biladigan, mehnat va badiiy-ijodiy faoliyat asoslarini biladigan, o'zi oldida turgan masala yoki muammoni tahlil eta oladigan, o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtira oladigan, ularni amalga oshirish uchun material tanlay oladigan, qo'yilgan masalalarni amalga oshirishda tavakkalchilik darajasini oldindan chamalay oladigan va natija hamda oqibat uchun javob bera oladigan, loyihalar ishlab chiqarish, ularni amalga oshirish tajribasiga ega faoliyat subyektidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonidayoq bolalarda dizayn faoliyatining u

yoki bu elementar ko‘rinishini shakllantirib borish kelajakda loyihalash kompetensiyasiga ega bo‘lgan yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarishning muhim omilidir.


Dizayn atamasi lotincha “designare” so‘zidan olingan bo‘lib, Italiyada Uyg‘onish davri va undan keyingi davrlarda “desegno” degan turli-tuman rasmlar, g‘oyalar va loyihalar ma‘nosida qo‘llanilgan. XVI asrdan boshlab, Angliyada “design” shaklida qo‘llanilib, loyihalash, konstruksiyalash ma‘nosini bergan – buyumlarni badiiy konstruksiyalash, sanoat buyumlarini estetik jihatdan loyihalash ma‘nolarini anglatgan. Rivojlangan mamlakatlarda dizaynga juda katta e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu mamlakat iqtisodi, turmush darajasining yuksalishi uchun muhim omildir. Dizayn – ommaviy iste‘molchilarning moddiy va ma‘naviy mahsulotning iste‘mol qiymatini qondirishga qaratilgan badiiy-loyihaviy faoliyatni tashkil etish shakli (xizmati) dir.

Dizayn bugungi kunda bir qator fan tarmoqlarini kompleks jamlagan badiiy loyihalash faoliyati bo‘lib, o‘z tarkibida tabiiy fanlar, texnikaviy, gumanitar bilimlarni, muhandislik va san‘atni bir-biri bilan bog‘lovchi, insonning barcha hayotiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan buyumlar va jarayonlar dunyosini yaratishga yo‘naltirilgan juda keng qamrovli faoliyatdir. Uning markaziy va muhim masalasi – insonning madaniy-estetik talablariga munosib jarayonlar, narsa-buyumlar va xizmatlar dunyosini yaratishdan iborat. Turli olim va tadqiqotchilarning turli davrlarda dizayn atamasiga bergan ta‘riflari bugungi kundagi dizaynning zamonaviy talqinini to‘liqligicha ifodalay olmaydi, zero zamonaviy dizayn nafaqat predmet va xizmatlarni badiiy loyihalash faoliyatini, balki inson ongini ham loyihalash qudratiga ega bo‘lgan fenomendir.

Dizayn – inson faoliyatini loyihalashning texnologik jihatdan maqsadga muvofiqlik va tabiiy uyg‘unlik asosida tashkil etish metodi demakdir.

Ushbu ta‘rifimiz inson faoliyati bilan bog‘liq moddiy va ma‘naviy olamni qamrab oladi. Ma‘lumki, inson turli maqsadlar bilan o‘z hayotiy faoliyatini loyihalaydi. Bunda kishilar narsalar olamini emas, balki narsalar olami muhitini yaratish uchun o‘z faoliyatini loyihalashning texnologik yaxlitlik va tabiiy uyg‘unlik metodiga murojaat qiladi. Loyihalash kompetensiyasiga esa ta‘lim-tarbiya tufayli erishiladi, dizayn ta‘limining mohiyati shundan kelib chiqadi. Dizayn ta‘limi ma‘lum o‘qitish muassasasida, davlat va jamiyatda ijodiy madaniy muhitni tashkil qilishning tizimli shaklidir.

Loyihalashning an‘anaviy turlari va dizayn orasida o‘ziga xos maxsus munosabatlar, uzviylik mavjudki, ular muayyan shaxslar va jamiyat hayotiga predmetlar olamining yangiliklarini tatbiq etish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf etishda namoyon bo‘ladi. Bolalar dizayni – maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy tarbiyalashning innovatsion yo‘nalishi hisoblanadigan, davr talablaridan kelib chiqib, yuqori funkcionallik, estetik darajaga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Bu ijodiy o‘z-o‘zini anglash, noyob individuallikni kashf etish, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi.



1-rasm. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik tuzilmasi

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik tuzilmasi o'z ichiga bola dizayn faoliyatini tashkil etishda uning yoshi, imkoniyatlarini inobatga olgan holda pedagog tayanishi lozim bo'lgan dizayn turlari, kompozitsion kategoriyalari, komponentlari, funksiyalari, dizayn tarixi va nazariyasi, dizayn ta'limi bo'yicha xorij tajribalarini umumlashtirgan holda ishlab chiqildi. Ushbu katta maktabgacha yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik tuzilmasining tashkiliy qismi "bola uchun dizayn" tamoyili asosiga qurilgan. Bunda ochiq predmet makonli rivojlantiruvchi dizayn ta'limi muhiti asoslab yoritilib berilgan. Tuzilmaning pedagogik qismida "bolalar dizayni" tamoyili asos vazifasini o'taydi. U dizaynning umumiy qabul qilingan nazariy asoslari, psixologik, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyati, kompozitsion kategoriyalari, komponentlari, turlari, funksiyalari, stilistik yechimlari uyg'unligidan iborat.

Dizayn metod va vositalarini maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoniga kontekstli yondashuv asosida ekstrapolyatsiya etish loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dizayn bolaning his-tuyg'ulari va harakatlariga, fikrlash doirasi va g'oyalariga, axloqiy tarbiyasiga, qiziqish va e'tiqodiga, estetik didiga, kasb-hunar tanlashiga, loyihalash kompetensiyasiga, dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etadi va zamonaviy texnologik hayotga tayyorlaydi, tanqidiy fikrlash, kashfiyotlar yaratishga o'rgatadi har bir hayotiy faoliyatini to'g'ri loyihalashtirishga, shuningdek, o'z g'oyalarini moddiylashtirish imkoniyatini beradi. Loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish u yoki bu yuqori estetik

xususiyatlarga ega predmet, xizmat va mahsulotlarning bola uchun nechog'li foydali va kerakli ekanini baholashga o'rgatadi, shuningdek, o'z g'oyalarini moddiylashtirish imkoniyatini beradi.

Loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish bu – bolaning maktabgacha yosh davridanoq kreativ fikrlaydigan, tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, zamon bilan hamnafas shaxsini dizayn orqali tarbiyalab borish zaruriyatini asoslaydi.

Dizayn va dizayn ta'limining uzluksiz ta'limda, xususan, maktabgacha ta'lim tizimida keng qo'llanilishi va Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlovchi milliy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiquvchi innovatsion yo'nalishdir. Loyihalash kompetensiyasi, dizayn va dizayn ta'limi, pedagogik dizayn elementlarini chuqur tadqiq etish, maktabgacha pedagogika jarayonini modernizatsiya qilishda yuqori samarali natijalarni beruvchi yangi innovatsion metodikalarni dizayn asosida takomillashtirish va qo'llashga keng imkoniyatlarini ochadi.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantiruvchi maxsus-ochiq predmet-makonli muhitni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning pedagogik modeli va metodik tizimi taklif etilgan.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantiruvchi maxsus-ochiq predmet-makonli muhitni tashkil etishda dizayn-faoliyatning “dunyoni integrativ bilish metodi” sifatida namoyon bo'lishi, ”hammani eshitish va birgalikda qaror qabul qilish” – maxsus ijodiy muhitning yaratilishi, predmet-makonli ijtimoiy-madaniy atrof muhit resurslarini samarali yo'naltirilgan qo'llanishiga e'tibor qaratish, ratsional kollaboratsiyani tashkil etish masalalari asos etib olindi, muhit elementlari aniqlashtirildi. (1-jadval)

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoniga rivojlantiruvchi predmet-makonli dizayn ta'limi muhitini tashkil etishning pedagogik shart- sharoitlari maktabgacha ta'lim yoshidagi bola dizayn faoliyati bilan uyg'unlashgandir.

Dizayn- faoliyat ta'lim jarayonining “mavzuviy-tashkil etuvchi” asosi sifatida atrof-muhitning san'at asarlari, madaniyat predmetlari va ularni aks ettirish usullarini (shaxsiy-ijodiy, samarali, o'yinli va kommunikativ faoliyat) namoyish etish imkonini yaratadi. Shunday qilib, bolalar uchun dizayn bu – bola uchun qulay, moddiy muhit yaratish demakdir.

Bolalar dizayni tushunchasi "maktabgacha yoshdagi bolaning badiiy va estetik tarbiyasi sohasidagi vazifalarni bajarishga" qaratilgan vositalar majmui demakdir. MTT da rivojlantiruvchi muhitni yaratishning asosiy sharti – bu jarayonga kirishuvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan modeliga tayanishdir.

Predmet-makonli rivojlantiruvchi muhit bu – bola faoliyatini funksional modellashtiruvchi, uning moddiy va ma'naviy mazmunini boyituvchi moddiy ob'ektlari tizimidir. Boyitilgan muhit bolaning turli faoliyatlarini ta'minlash uchun ijtimoiy va ob'ektiv vositalarning birligini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida dizayn ta'limi asosida takomillashtirilgan rivojlantiruvchi maxsus-ochiq predmet-makonli muhitning pedagogik shart-sharoitlari

Pedagogik muhit shart-sharoitlari			
Dizayn ta'limining metodik tizimi			Dizayn ta'limi muhitini tashkil etish prinsiplari
Shakllari	Vositalari	Metodlari va texnologiyalari	
Kollaboratsiya	O'quv-meyoriy hujjatlar	Loyiha (dizayn)	Milliylik (mentallik)
Jamoadashlash	O'quv metodik ta'minot	Mind-map (Raviant fikrlash)	Insonparvarlik Ekologik tarbiya
Loyihaviylik	Bolalar uchun dizayn	O'yin	Yoshga moslik
Individuallik	Bolalar dizayni	Dizayn faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari	Motivatsion-ilhomlantiruvchi rag'batlantirish
Juftliklarda ishlash	AKT	Dizayn va loyiha faoliyatiga ilhomlantirish va rag'batlantirish metodlari	Kontekstlik (normativ o'quv hujjatlari asosida) Tejamkorlik (ratsionallik)
Mahorat darslari	Media-mahsulotlar	Kuzatuv va o'z o'zini nazorat etish metodlari	Shaxsga yo'naltirilganlik
Sayr	Muhit badiiy stilistik yechimi	Muammoli vaziyatlar	Ergonomika (qulaylik)
		Integrativ	Kreativlik
		Variativ	Havfsizlik
		Reproduktiv	Integratsion

Maktabgacha yoshdagi bolalarda dizayn tafakkurini shakllantirish va dizayn madaniyatini o'zlashtirish, agar buning uchun qulay pedagogik sharoitlar yaratilsa va unga rioya qilinsa, ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori samara beradi. Taklif etilayotgan rivojlantiruvchi ochiq muhit elementlari davr talabidan kelib chiqib, mobil tarzda o'zgarishi, takomillashtirilishi va olib tashlanishi yoki yangi elementlar bilan boyitilishi mumkin.

Agar maktabgacha predmet-makonli dizayn ta'limi muhiti, birinchi navbatda, barcha iyerarxik darajalarda ta'lim-tarbiya oluvchilarning loyiha va dizayn faoliyati bilan shug'ullanishi jarayonida yuzaga keladigan barcha ehtiyojlarni qondirish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratsa, uni rivojlantiruvchi, deb hisoblash mumkin, shaxs tomonidan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ularni ichki qadriyatlarga organik ravishda aylantirish uchun muayyan ta'lim muhiti tomonidan taqdim etilgan bunday imkoniyatlarning butun majmuasi uning rivojlanayotgan psixologik-pedagogik salohiyatini tashkil qiladi.

Dissertasiya ishida katta maktabgacha yoshdagi bola loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab

chiqilgan. (2-rasm). Unga ko'ra, 7 ta blokda loyihalash kompetensiyasining rivojlanish jadalligi o'z aksini topgan. Bu bloklar quyidagilardan iborat:

1. Maqsad va vazifalar bloki – loyihalash kompetensiyasiga bo'lgan zarurat ijtimoiy buyurtma nuqtai nazaridan asoslanib, loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishdan maqsad va vazifalar jamiyat ehtiyoji asosida belgilab olingan.

2. Nazariy metodologik blok – loyihalash kompetensiyasi komponentlari, yondashuvlar va tamoyillari dizayn nuqtai nazaridan tanlab olingan.

3. Mazmunli blok – dizayn asosida katta maktabgacha yoshdagi bola loyihalash kompetensiyasini shakllantirishga oid bilim, ko'nikma malaka, amaliy qo'llash, tahliliy fikrlash pozitsiyalari 5-6 yoshli bola bilim, ko'nikmalari asosida belgilangan Davlat talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan.

4. Protsessual-texnologik blokda – loyihalash kompetensiyasining maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanishi yuzasidan tegishli ma'lumotlar keltirilgan.


5. Shart-sharoitlar bloki – loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish uchun lozim bo'lgan rivojlantiruvchi muhit komponentlari amaldagi dastur-hujjatlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan.

6. Baholash bloki – katta maktabgacha yoshdagi bola loyihalash kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash indikatorlari, mezonlari, darajalari va bosqichlari ifodalangan. Loyihalash kompetensiyasi quyi darajada rivojlangan ko'rsatkichlarni ko'tarish yuzasidan model harakat trayektoriyalari ko'rsatilgan.

7. Natija bloki - yuqori darajada rivojlangan loyihalash kompetensiyasiga ega bola shaxsi modelning pirovard natijasi sifatida belgilab olingan.

Taklif etilayotgan model asosida maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida loyihalash kompetensiyasini mental xususiyatlarimizni hisobga olgan holda rivojlantirishni tashkil etish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek modelning afzalligi shundan iboratki, loyihalash kompetensiyasi quyi darajada rivojlangan tarbiyalanuvchilar bilan alohida ishlash uchun orqaga qaytish trayektoriyalari belgilab olingan. Model qayta o'zgartirilib (protsessual-texnologik, mazmunli va baholash bloklarini) uzluksiz ta'limning boshqa pog'onalari uchun ham ekstrapolyatsiya qilinishi imkoniyatlari mavjud. Ushbu model asosida loyihalash kompetensiyasini dizayndan boshqa vositalar asosida rivojlantirish modellarini ishlab chiqish mumkin.

Maktabgacha dizayn ta'limining metodik tizimi dizayn faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, dizayn va loyiha faoliyatiga ilhomlantirish va rag'batlantirish hamda kuzatuv, diagnostika va o'z-o'zini nazorat etish metodlari uyg'unligidan iborat. Dizayn faoliyati jarayonida bolalarimizga fikrlash madaniyati, kreativlik kabi sifatleri shakllanar ekan, tanqidiy fikrlash, loyihalash, kashfiyotga ilhomlantiruvchi metodikalari sifatida loyiha (dizayn) va Mind map – intellektual xaritalar metodlarini qo'llash tavsiya etiladi.



2-rasm. Maktabgacha katta yoshdagi bola loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning pedagogik modeli

Dissertasiyaning “**Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning metodik tizimi samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha katta yoshdagi bolalar va pedagoglar loyihalash kompetensiyasini diagnostika qilish va mavzuning dolzarbligini aniqlashga oid tajriba-sinov ishlarining mazmun-mohiyati yoritilib berilgan. Shuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantiruvchi metodik tizimining samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining borishi va natijalari tahlili keltirildi.

